


V. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK

2021- yilning yanvar–iyun holatiga ro‘yxatga olingan jami kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlarining soni 21 954 tani tashkil qildi. Viloyat bo‘yicha kichik tadbirkorlik korxona va tashkilotlarining soni Urganch shahrida 4 858 ta, Xiva shahrida 2040 ta, Xiva tumanida 1 779 ta, Urganch tumanida 2 517 ta, Xonqa tumanida 1 684 ta, Yangiariq tumanida 1 152 ta, Hazorasp tumanida 1 205 ta, Gurlan tumanida 1 396 ta, Qo‘siko‘pir tumanida 1 495 ta, Bog‘ot tumanida 1 194 ta, Shovot tumanida 1 108 ta, Tuproqqa‘l'a tumanida 501 ta va Yangibozor tumanida 1027 tani tashkil qildi.


Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari sonining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi *2021-yilyanvar–iyun holatiga (jamiga nisbatan foizda)*



Eng ko‘p kichik biznes subyektlari savdo sohasida (jami tashkil etilgan subyektlarning (30,1 foizi), sanoat tarmog‘ida (24,9 foiz), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida (16,5 foiz), yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatharda (6,2 foiz) tashkil etilgan.

2020- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) hududlar bo‘yicha eng ko‘p Urganch shahrida 30,8 birlikda, Xiva shahrida 20,3 birlikda, Yangibozor tumanida 16,9 birlikda, Urganch tumanida 15,3 birlikda, Yangiariq tumanida 13,8 birlikda, Tuproqqa'l'a tumanida 13,8 birlikda Xiva tumanida 13,5 birlikda, Gurlan tumanida 12,0 birlikda bo‘lib, o‘rtacha ko‘rsatkich 8-11 birlik oralig‘ida Hazorasp, Bog‘ot, Qo‘siko‘pir, Xonqa, Shovot tumanlarida ushbu ko‘rsatkich past bo‘lib qolmoqda.

2021- yilning yanvar- iyun oylarida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)



Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni
(birlik, fermer va dehqon xo 'jaliklarisiz)

	<i>2021- yil 1 iyul holatiga ro'yxatga olingan</i>	<i>2021- yil yanvar- iyunda</i>	
		<i>tashkil topdi</i>	<i>tugatildi</i>
Viloyat bo'yicha:	21954	2328	537
<i>shaharlar:</i>			
Urganch	4856	186	69
Xiva	2040	129	37
<i>tumanlar:</i>			
Bog'ot	1194	136	39
Gurlan	1396	270	36
Qo'shko'pir	1495	238	29
Urganch	2517	76	7
Hazorasp	1205	171	29
Tuproqqa'l'a	501	134	29
Xonqa	1684	129	28
Xiva	1779	95	49
Shovot	1108	111	40
Yangiariq	1152	459	105
Yangibozor	1027	194	40

2021-yil yanvar-iyun oylarida viloyatda ro'yxatga olingan yangi kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari soni 2 328 tani tashkil topgan bo'lib, bu ko'rsatkich Urganch shahrida 186 ta, Urganch tumanida 76 ta, Xiva shahrida 129 ta, Xonqa tumanida 129 ta, Qo'shko'pir tumanida 238 ta, Hazorasp tumanida 171 ta, Xiva tumanida 95 ta, Shovot tumanida 111 ta, Yangiariq tumanida 459 ta, Gurlan tumanida 270 ta, Bog'ot tumanida 136 ta, Yangibozor tumanida 194 ta va Tuproqqa'l'a tumanida 134 tani tashkil qildi.

2021- yil yanvar- iyun oylarida yalpi hududiy mahsulotning 72,2 foizi (2020- yil yanvar- iyunda 72,3 foiz) kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarildi.

2021- yilning yanvar- iyun oylariida kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari tomonidan:

- sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 1 193,8 mlrd. so‘mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 21,9 foizi) tashkil qildi;

- 7 049,0 mlrd. so‘mlik qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklari mahsulotlari ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan xizmatlar) bo‘lib, o‘sish sur’ati 100,1 foizni (qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklari yalpi mahsulotining 99,7 foizi) tashkil qildi;

- 2785,6 mlrd. so‘mlik investitsiyalar (umumiyligi investitsiyalar hajmining 75,0 foizi) o‘zlashtirildi va 2020- yilning yanvar-iyuniga nisbatan 149,2 foizni tashkil qildi;

- 1502,8 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiyligi hajmining 91,5 foizi) bajarildi va 2020- yilning yanvar-iyuniga nisbatan 101,1 foizni tashkil qildi;

- avtomobil transporti yuk aylanmasining 101,9 foizga (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 74,4 foizi), yo‘lovchi aylanmasining esa 101,5 foizga (umumiyligi yo‘lovchi aylanmasining 95,8 foizi) tashkil qildi;

- chakana tovar aylanmasi umumiyligi hajmining 86,6 foizi yoki 3 733,0 mlrd. so‘mi (o‘sish 110,7 foiz) va xizmatlar umumiyligi hajmining, mos ravishda 63,0 foizi yoki 2 455,9 mlrd. so‘mi (o‘sish 119,9 foiz) shakllantirildi;

- 52,3 mln. AQSh dollari (umumiyligi eksport hajmining 49,7 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi. 112,5 mln. AQSh dollari (umumiyligi import hajmining 59,4 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi.

**Kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmidagi xususiy
tadbirkorlikning (fuqarolar mulki) ulushi
(2021- yilning yanvar- iyun)**

	<i>Kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ish, xizmat) hajmi, mlrd.so‘m</i>	<i>Kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ish, xizmat) hajmida xususiy sektor ulushi, % hisobida</i>
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	7 049,0	99,7
Sanoat	1 193,8	21,9
Qurilish	1 502,8	91,5
Chakana savdo	3 733,0	86,6
Yuk tashish, <i>mln tn.</i>	14,1	91,9
Yo‘lovchi tashish, <i>mln.kishi</i>	176,2	93,5
Eksport, <i>mln. AQSh doll.</i>	52,3	49,7
Import, <i>mln. AQSh doll.</i>	112,5	59,4

**Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi
(foizda)**

